

Сўфий – табиб шайх Нурсафардий

Мен халқданман, Халқ мендан...

Мен халқимнинг ёнида турдим,

Халқим турди менинг ёнимда.

Халқим бўлиб мардона юрдим,

Мен халқман ва халқ ийманимда.

Биласизми, бизга миллий қаҳрамонлик керак эмас, биз давлатдан йироқлашган ҳолда, халқни ортимиздан эргаштиромоқчи ҳам эмасмиз. Сўфийлик илмида бунақа одат йўқ, бўлмаган ва бўлмайди ҳам. Сўфийлик фалсафасида ҳокимиятга интилиш бу, сўфийликнинг йўқолишига тенгдир. Биз эътиқод йўлида турганимизни англаган ҳолда, халқ ичига кирдик ва халқ билан бирга қолгаймиз. Сўфийлар аслида руҳан моддий бу оламга боғлиқ эмасдирлар, лекин илоҳий ишққа етишмоқларига қадар омонат оламда яшар эканлар, доимо халқ билан биргадирлар ва ҳикмат сўзлаб оммани эзгуликка чорлаш уларнинг танлаган касбидур. Бизнинг фалсафамизни англаган бўлсангиз, бу айнан сўфийлик фалсафаси бўлиб, мақсадимиз халқимизни маърифати йўлида жонфидоликдир. Бизким, фақирлик илмини касб этдик. Миллатимизнинг маънавияти, маърифати бойисин, бизким бир чеккада эгнимизда йиртиқ чопон кийсак ҳам, элимизнинг комиллиги ва мукамаллигини кўрган ҳолда, ўзимизни бахтли ва саодатли сезайлик. Миллат бахти бу бизнинг бахтимиздир. Халқ бахти бу бизнинг бахтимиздир. Халқ бу бизмиз, биз бу халқдир. Тарихдан маълумки, унда яшаб ўтган барча азизу - авлиёлар асосан халқ ичида юриб ва ҳамиша давлат шоҳлари томонидан эъзозда бўлганлар... Ҳожа Аҳмад Яссавий, Бурхониддин Марғиноний, Нақшбандий, Ғиждувоний, Ревгарий сингари донишмандларимизнинг маданий ва илмий мерослари то ҳануз қалбимиздадир. Сўфийлик олами бу ўзга дунё ва давлат ҳам сўфийлик ғоялари олдида ўзга бир дунёдир. Сўфийлик ва давлат ҳеч қачон бир - бирига қарама - қарши бормаган. Аксинча бир - бирининг фалсафасига одилона ёндошган. Фақат баъзи бир давлат ичида турган ғаразгўйларнинг хатоси ва ғийбати ила Машраб, Насимий сингари авлиёларимиз ноҳақ қатл қилинганлар. Тарих тарихда қолди ва бугунимиз ҳам тарихга айланиб бормоқда. Биз гарчи юқорида тилга олинган авлиёларимиз сингари ўзимизни авлиё билмасакда, Илоҳнинг инояти ила биз яратган Нурсафардийя фалсафаси халқимизнинг комиллиги ва мукамаллиги учун хизмат қилишига тўла ишончимиз комилдир. Маълумки, ўтган яқин тарих миллатимизнинг, халқимизнинг бошига кўп кулфатларни солди. Манфур сиёсатчилар юртимизни хом - ашё базасига айлантириб, миллатни манқуртликка маҳкум этишди. Халқимизда илмга бўлган қизиқиш сусайди. Маънавиятимиз, маданиятимиз, миллий урф - одатларимиз томирига болта уришди. Мамлакатимиз фақат хом - ашё базасига айлантирилгани учун ҳам, юртимизда ортиқча иш ўринлари завод ва фабрикалар,

корхоналар бунёд этилмадики, унинг таъсирини бугунги кунда юртдошларимизнинг чет элларга иш излаб кетаётганидан билсак бўлади. Тарихнинг манфур сиёсатининг айёрони, узоқни ўйлаб сиёсат юргизгани то ҳануз ўз кучини сақлаб қолмоқда. Айнан ўша замоннинг қалтис сиёсати туфайли миллатимиз парокандаликка учрамоқдаки, бу ҳолатни ўз вақтида англамасак, миллий манқуртизм касали бизни тарк этмагай ва қарамлик синдроми давом этаверади. Тасаввур қилинг, қанча - қанча юртдошларимиз иш излаб ўзга юртларга, асосан Россия ўлкасига қарамликка, қулликка кетмоқдалар. Агар улар ўша меҳнатни ўз юртимизда қилганларида биз давлатлар орасида кескин ривожланиб ҳам иқтисодий, ҳам сиёсий жиҳатдан юксакларга кўтариламиз. Ўзга юртлар қорчалонлари бизнинг фарзандларимизнинг оғир меҳнатлари эвазига юртларини обод қилмоқдалар. Биз бу борада давлатни айблашга ҳаққимиз йўқ. Ҳар қандай давлат мустақилликка эришгандан сўнг, маълум муддат иқтисодий қийинчиликлар остида қолиб кетади. Масалан, шундай қудратли Америка қўшма штатлари ҳам ўз мустақиллигидан кейин, деярли қирқ саккиз йил иқтисодий бўҳрон остида яшади. Яқин келажакда мамлакатимизнинг иқтисодий, сиёсий, маданий ва маърифий жиҳатдан юксалишига ва жаҳон халқлари орасида янаям обрў топишига ишонамиз. Лекин ўша давр ўз - ўзидан келмайди. Давлат ўз йўлида, биз халқ сифатида давлат билан ёнма - ён турган ҳолда маданиятимизни, маънавиятимизни, маърифатимизни ўзимиз кўтаришимиз керак. Давлат ҳаммасини қилмоқда деб қараб турсак, ўзлигимизда ҳеч нарса ўзгармайди. Миллат ўз обрўсини осмонўпар бинолари ва ё ҳашаматли саройлари билан эмас, илм ва тафаккури билан топади. Миллатда эътиқод бўлмаса, фалсафа, илм бўлмаса бундай элнинг обрўси бўлмайди. Биз буюк миллат, буюк халқимиз. Тарихимизга назар ташлайлик. Агар ошқора, аччиқ бўлса ҳам айтишимиз лозимки, биз буюк тарихимизга арзимайдиган манқуртлик қўрғонига тушиб қолиш ҳавфида турибмиз. Биз аслида донишманд халқимиз. Лекин донишмандлик бизни тарк этмоқда. Нега? Биз ўз қонимизга хиёнат қиламизми? Ҳужайрамизни тарихнинг асоратидан поклаб нобоп тараққиёт билан тўлдирамизми? Донишмандлик бўзлаб қолмоқда. Мактабларимизда кутубхоналаримиз ҳувиллаб қолмаяптими? Фарзандларимиз майдонда тўп ўйнаб, компьютер хоналарда ўйинлар билан банд, телефон қовлаб ва ё, бир чеккада сигарет тутатиб қимматли вақтларини йўқотмаяптиларми? Ота - оналаримиз фарзандларининг юриш туришидан хабардорми? Оилада соғлом тарбия муҳити йўлга қўйилганми? Ватан, халқ, миллат оиладан бошланади. Оила майли ночор бўлсин, лекин илми ва тарбияли бўлсин. Илм бор жойда оила хор бўлмайди, ночор бўлмайди. Халқимизда соғлом турмуш тарзини яратиш учун биринчи навбатда тафаккурга эътибор қаратмоғимиз лозимдир. Бизнинг фалсафамиз халқпарвар бўлгани учун ҳам халқ йўлида собитқадам турар эканмиз, албатта уларнинг соғлом турмуш тарзи учун ўзимизни маъсул сезамиз. Бизнинг тарихимиз буюқдир ва ҳозирги замонимиздаги халқимизнинг буюқлигини давомийлигини ушлаб туриш ва буюк халқни келажак авлодларга етказиш учун ҳам маъсулдирмиз. Буюқлик маънавият, маданият ва

маърифатдадир. Буюклик тафаккурдадир. Шундай экан, бу юртнинг оддий кетмончисидан тортиб, юқори касб эгасигача тафаккур соҳиби бўлмоғи керак. Тафаккур нима деганда айтиш лозимки, тафаккур бу ҳеч бир нуқсони бўлмаган чин инсонийликдир. Биз оилада шундай муҳитни яратайликки, ота ҳам оталик ва ҳам устозлик вазифасини бажарсин. Биз оталарга устозлик унвонини берайлик. Ҳар бир оилада одабийлик мактабидан ўзлари фарзандларига дарс берсинлар. Отанинг вазифаси бу оилани тебратиш бўлса, устознинг вазифаси фарзандни тарбияламоқ унга илм бермоқдир. Ушбу тизим миллатимизнинг илмий маданий ва маърифий даражасини юксалтиришда жуда қўл келади. Ватан оиладан бошланади, дедик. Ватаннинг кўрки оиладан бошланади. Шу ўринда айтмоқчимизки, фарзанд тарбияси учун устозлик қилишга ўқиган бўлиши шарт эмас. Қонимизда ота -боболаримиздан ўтиб келаётган инсонийлик ва миллий анъаналаримиз бор. Фақатгина уни ҳаракатга келтириб кўнгилда юксак эътиқод ва қаттиқ қўллик билан вазифангизга ёндошсангиз бўлади. Сиз миллатингизни, аслингизни, наслингизни биласиз. Аввало, уйда турли хил мавзуларда кутубхона ташкиллаштириш керак. Албатта, маънавиятли бўлишни истасангиз илмга интиласиз. Тушиниб турибмиз, китоб ўқимоқ ҳозир ҳаммага ҳам ёқадиган юмуш эмас. Лекин биз фақат нафс билан чекланиб қолсак, юқорида айтганимиздек манқуртлик асоратида қолиб кетаверамиз. Тафаккурида илм бўлмаган инсон ғийбатга берилади. Ахир тил гапирмоқ учун берилган. Тафаккурда гапирадиган илм шодалари бўлмаса ғийбат кўпаяди. Ғийбат бу руҳий касалликдир. Халқимизни бундай касаллик туридан озод қилиш учун фикрни миллий ўзликка, миллий маданиятимизга қаратишимиз керак. Илмнинг чеки чегараси йўқдир. Агар тафаккур илм билан бойитилса, ҳеч қандай ғийбатга ўрин қолмайди ва биз оталаримиз оналаримизнинг устозлик вазифалари орқали соғлом турмуш тарзини яратамиз. Халқимиз ҳеч қачон бировга ёмонлик истамаган, бағри кенг улуғ бир миллатдир. Бизда ҳар бир оила тинч ва беғубор бекаму - кўст яшашни истайди. Фақат ана шу бекаму - кўстликнинг ёнига илмни қўшсак, билингки ҳаётингиз тубдан ўзгариб кетади ва сиз чинакам бахтни англайсиз. Биз ҳар бир оилада инсонийлик мактабларини ташкиллаштирадик, ота - оналаримиз кунига ҳеч бўлмаса ярим соат фарзандларига меҳр -оқибат нима, адолат, ҳақиқат, мардлик, саховат, оила, ватан, миллат нима ва ҳоказолар ҳақида насиҳат сўзласалар, нур устига аъло нур бўларди. Ота фарзандига десинки, - болам сенинг виждонинг пок, кўнглинг ҳар неки қусур одатлардан холи бўлмоғи лозим. Виждон камарини белингга боғлаб инсонийлик фазилатларини халқ олдида намоён эт. Қалбингда поклик, ҳиммат, хизмат, ҳурмат, камтаринлик, одоб - ахлоқ ақидаларини шакллантир, ота- она, эл -юрт, Ватан олдида ўз бурчингни англа, ёмондан йироқ юр, яхшини дўст тутгин, сабрли бўл, иймонингни бут сақла. Ҳамиша илмга интилиб яшагин, хор бўлмайсан, бировга зориқмайсан, саодат топасан.Одоб - ахлоқ бу бизнинг қонимиздаги илмдир. Фарзанднинг тарбияси учун диплом шарт эмас. Яхшилик, меҳр - оқибат ҳақидаги сўзлар орамизда шу қадар кўпки, уни айтавериш тугата олмайсиз. Биз ана шундай гўзал ҳаётга олиб боровчи тарбиявий

аҳамияти катта бўлган сўзларни фарзандларимизга етказиб беролмаяпмиз. Биз ҳаёт ташвишларига берилиб, фарзандларимиз тарбиясига вақт ажратаолмаяпмиз. Бунинг натижасида фарзандларимизнинг илмга тўлдиришлари керак бўлган ҳужайра бўшлиқларини салбий хислатлар эгалламоқда. Инсон онгида қандай фикр бўлса, ўшанга амал қилади. Миллий эътиқод бўлса, миллийлигига ёндошади. Эътиқод жуда кучли манбаики, у инсон вужудига қон билан киради. Мисол келтирайлик. Тарихда бир мамлакат шоҳи гўзал лўли бир қизни севиб қолибди ва унга тиламчилик қилмаслик шарти билан уйланибди. Орадан кунлар ўтиб шоҳ чекка бир саройида тоқчаларга нонни териб, ўзига ўзи садақа қилинг деб тиламчилик қилаётган ўша лўли хотинини кўриб қолибди. Шоҳ саройида малика тиламчилик қилмоқда. Эътиқоднинг кучини сезаяпсизми? Ёки бўлмаса ёмон одатларни касб қилган ўғрини олайлик. Сиз уни ҳар қанча йўлидан қайтарманг, ҳар қанча қамалмасин, барибир ўғирлик қилади. Ҳа, бу одам бўлмайди деб қўямиз. Бу ҳам эътиқоддир. Эътиқодни жон билан суғуриб олинмаса, айириб бўлмайди. Энди англаяпсизми, агар биз миллатимиз онгига миллий эътиқодни сингдирсак, қандай қудратли ватан бўлишимизни. Биз азалий илмларимизни эъзозлаган ҳолда, кейинги асрнинг салбий оқибатларини йўқотиш учун инсонийлик мактабларига қайта асос солишимиз керакки, бу ўзлигимиздан анча йироқлашиб кетаётган бизнинг давримизда миллий эътиқодимизни кучайтиради. Инсон бирор бир касб танлашидан олдин, аввало, миллий эътиқод мактабидан сабоқ олиши керак. Ана шунда жамиятдаги барча салбий қусурлардан холи мусаффо ҳаёт ярата оламиз. Биз фарзандларимизнинг ўсиб келаётган онгига тафаккур ва миллий эътиқодни чуқурроқ сингдиришимиз керак. Бу, халқимиз олдидаги маъсулиятли ва керакли тизимдир. Миллат ўзини ўзига кўрсатиш керак эмас, миллат ўз - ўзига фахр туйғусини ҳис қилиши керак. Миллатимизнинг донишмандлигини, халқимизни оқиллигини ўзимиз эмас, ўзга миллатлар кўрсин ва ҳавас қилсин. Инсонийлик туйғулари эътиқод орқали туғилади. Биз миллатимиз, халқимизнинг қонига миллий эътиқодни сингдирсакгина мақсадга эришамиз. Эътиқодли инсон ҳамиша ўз миллатига содиқ қолади, унинг маданияти ва маънавиятини қадрлайди, улуғлайди. Миллий урф -одатларимизни давомийлигини таъминлайди. Фикри ёдини илмга қаратади. Миллат ва ватан учун қайғуради. Унинг учун шахсий манфаатлар иккинчи даражада бўлиб қолади. Аслида бизда барча шароитлар мавжуддир. Иқтисодий танқисликни рўкач қилиб баъзи юртдошларимизнинг ўзга юртларда ишлагани кетишлари, бу миллатимизнинг ҳам маънавияти ва ҳам маданиятига ўзининг салбий таъсирини ўтказмай қолмайди. Унинг ўзга юртда истаймизми йўқми, руҳий ҳолатида ўзгаришлар содир бўлади. Ўша муҳит одатига ўрганади, керак бўлса ўзга маданиятлар хилини юртимизга олиб киришдан ҳам қайтмайди. Нега? Чунки улар миллий эътиқод тарбияси билан суғорилмаганлар. Одам савдоси маълумки, глобал муаммолардан бирига айланди. Бу ҳолат бизнинг юртимизда ҳам юқори даражада эканлигини ҳар куни юртимиздан чиқиб кетаётган юртдошларимиздан билсак бўлади. Қулликнинг замонавий бундай кўриниши миллатимиз обрўсига путур

етказмаяптими? Биз қачон ўзликни англаймиз. Биз қачон нафсни бир чеккага суриб миллий эътиқод йўлига ўтамиз. Биз бир миллат ўз миллатимизнинг шаънига доғ тушириб қўймаймизми? Агар илм бирла тафаккурни ишлатсак, ўша ёқда топилаётган пулни ўз юртимиздан ҳам топса бўлмайдими? Биз ўз устимиздан қачон ишлаймиз? Биз ўзликимизни тафаккуримизда қачон уйғотамиз. Биз эртанинг ғами билан эмас, бугуннинг илми билан яшайлик, эртамыз ёруғ бўлади. Бизнинг миллат, бизнинг халқ жаҳон тамаддунига тамал тошини қўйган миллатдир. Ал - Беруний, Ал - Бухорий, ал - Хоразмий, ат - Термизий, Ибн Сино каби даҳолар авлоди эканлигимизни унутиб қўймайлик. Бизнинг миллатга, бизнинг халққа қуллик ярашмайди. Биз оқил ва доно, донишманд халқмыз ва ўз тамойилимызга содиқ қолишимиз керак.

Алҳамдиллиллаҳи роббил аъламин...

So'fiy – tabib shayx Nursafardiy

**Men xalqdanman, Xalq
mendan...**

***Men xalqimning yonida turdim,
Xalqim turdi mening yonimda.
Xalqim bo'lib mardona yurdim,
Men xalqman va xalq iymonimda.***

Bilasizmi, bizga milliy qahramonlik kerak emas, biz davlatdan yiroqlashgan holda, xalqni ortimizdan ergashtirmoqchi ham emasmiz. So'fiylik ilmida bunaqa odat yo'q, bo'lmagan va bo'lmaydi ham. So'fiylik falsafasida hokimiyatga intilish bu, so'fiylikning yo'qolishiga tengdir. Biz e'tiqod yo'lida turganimizni anglagan holda, xalq ichiga kirdik va xalq bilan birga qolgaymiz. So'fiylar aslida ruhan moddiy bu olamga bog'liq emasdirlar, lekin ilohiy ishqqa etishmoqlariga qadar omonat olamda yashar ekanlar, doimo xalq bilan birgadirlar va hikmat so'zlab ommani ezgulikka chorlash ularning tanlagan kasbidur. Bizning falsafamizni anglagan bo'lsangiz, bu aynan so'fiylik falsafasi bo'lib, maqsadimiz xalqimizni ma'rifati yo'lida jonfidollikdir. Bizkim, faqirlik ilmini kasb etdik. Millatimizning ma'naviyati, ma'rifati boyisin, bizkim bir chekkada egnimizda yirtiq chopon kiysak ham, elimizning komilligi va mukammalligini ko'rgan holda, o'zimizni baxtli va saodatli sezaylik. Millat baxti bu bizning baxtimizdir. Xalq baxti bu bizning baxtimizdir. Xalq bu bizmiz, biz bu xalqdir. Tarixdan ma'lo'mki, unda yashab o'tgan barcha azizu - avliyolar asosan xalq ichida yurib va hamisha davlat shohlari tomonidan e'zozda bo'lganlar... Hoja Ahmad Yassaviy, Burxoniddin Marg'inoniy, Naqshbandiy, G'ijduvoniy, Revgariy singari donishmandlarimizning madaniy va ilmiy meroslari to hanuz qalbimizdadir. So'fiylik olami bu o'zga dunyo va davlat ham so'fiylik g'oyalari oldida o'zga bir dunyodir. So'fiylik va davlat hech qachon bir - biriga qarama - qarshi bormagan. Aksincha bir - birining falsafasiga odilona yondoshgan. Faqat ba'zi bir davlat ichida turgan g'arazgo'ylarning xatosi va g'iybati ila Mashrab, Nasimiy singari avliyolarimiz nohaq qatl qilinganlar. Tarix tarixda qoldi va bugunimiz ham tarixga aylanib bormoqda. Biz garchi yuqorida tilga olingan avliyolarimiz singari o'zimizni avliyo bilmasakda, Ilohning inoyati ila biz yaratgan Nursafardiyya falsafasi xalqimizning komilligi va mukammalligi uchun xizmat qilishiga to'la ishonchimiz komildir. Ma'lo'mki, o'tgan yaqin tarix millatimizning, xalqimizning boshiga ko'p kulfatlarni soldi. Manfur siyosatchilar yurtimizni xom - ashyo bazasiga aylantirib, millatni manqurtlikka mahkum etishdi. Xalqimizda ilmga bo'lgan qiziqish susaydi. Ma'naviyatimiz, madaniyatimiz, milliy urf - odatlarimiz tomiriga bolta urishdi. Mamlakatimiz faqat xom - ashyo bazasiga aylantirilgani uchun ham, yurtimizda ortiqcha ish o'rinlari zavod va fabrikalar, korxonalar bunyod etilmadiki, uning ta'sirini bugungi kunda yurtdoshlarimizning chet ellarga ish izlab ketayotganidan bilsak bo'ladi. Tarixning manfur siyosatining ayyorona, uzoqni o'ylab siyosat yurgizgani to hanuz o'z kuchini saqlab qolmoqda. Aynan o'sha zamonning qaltis siyosati tufayli millatimiz parokandalikka

uchramoqdaki, bu holatni o'z vaqtida anglamasak, milliy manqurtizm kasali bizni tark etmagay va qaramlik sindromi davom etaveradi. Tasavvur qiling, qancha - qancha yurtdoshlarimiz ish izlab o'zga yurtlarga, asosan Rossiya o'lkasiga qaramlikka, qullikka ketmoqdalar. Agar ular o'sha mehnatni o'z yurtimizda qilganlarida biz davlatlar orasida keskin rivojlanib ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan yuksaklarga ko'tarilmasdik. O'zga yurtlar qorchalonlari bizning farzandlarimizning og'ir mehnatlari evaziga yurtlarini obod qilmoqdalar. Biz bu borada davlatni ayblashga haqqimiz yo'q. Har qanday davlat mustaqillikka erishgandan so'ng, ma'lum muddat iqtisodiy qiyinchiliklar ostida qolib ketadi. Masalan, shunday qudratli Amerika qo'shma shtatlari ham o'z mustaqilligidan keyin, deyarli qirq sakkiz yil iqtisodiy bo'hron ostida yashadi. Yaqin kelajakda mamlakatimizning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy jihatdan yuksalishiga va jahon xalqlari orasida yanayam obro' topishiga ishonamiz. Lekin o'sha davr o'z - o'zidan kelmaydi. Davlat o'z yo'lida, biz xalq sifatida davlat bilan yonma - yon turgan holda madaniyatimizni, ma'naviyatimizni, ma'rifatimizni o'zimiz ko'tarishimiz kerak. Davlat hammasini qilmoqda deb qarab tursak, o'zligimida hech narsa o'zgarmaydi. Millat o'z obro'sini osmono'par binolari va yo hashamatli saroylari bilan emas, ilm va tafakkuri bilan topadi. Millatda e'tiqod bo'lmasa, falsafa, ilm bo'lmasa bunday elning obro'si bo'lmaydi. Biz buyuk millat, buyuk xalqmiz. Tariximizga nazar tashlaylik. Agar oshkora, achchiq bo'lsa ham aytishimiz lozimki, biz buyuk tariximizga arzimaydigan manqurtlik qo'rg'oniga tushib qolish havfida turibmiz. Biz aslida donishmand xalqmiz. Lekin donishmandlik bizni tark etmoqda. Nega? Biz o'z qonimizga xiyonat qilamizmi? Hujayramizni tarixning asoratidan poklab nobop taraqqiyot bilan to'ldiramizmi? Donishmandlik bo'zlab qolmoqda. Maktablarimizda kutubxonalarimiz huvillab qolmayaptimi? Farzandlarimiz maydonda to'p o'ynab, komp'yuter xonalarda o'yinlar bilan band, telefon kovlab va yo, bir chekkada sigaret tutatib qimmatli vaqtlarini yo'qotmayaptilarmi? Ota -onalarimiz farzandlarining yurish turishidan xabardormi? Oilada sog'lom tarbiya muhiti yo'lga qo'yilganmi? Vatan, xalq, millat oiladan boshlanadi. Oila mayli nochor bo'lsin, lekin ilmi va tarbiyali bo'lsin. Ilm bor joyda oila xor bo'lmaydi, nochor bo'lmaydi. Xalqimizda sog'lom turmush tarzini yaratish uchun birinchi navbatda tafakkurga e'tibor qaratmog'imiz lozimdir. Bizning falsafamiz xalqparvar bo'lgani uchun ham xalq yo'lida sobitqadam turar ekanmiz, albatta ularning sog'lom turmush tarzi uchun o'zimizni ma'sul sezamiz. Bizning tariximiz buyukdir va hozirgi zamonimizdagi xalqimizning buyukligini davomiyligini ushlab turish va buyuk xalqni kelajak avlodlarga etkazish uchun ham ma'suldirmiz. Buyuklik ma'naviyat, madaniyat va ma'rifatdadir. Buyuklik tafakkurdadir. Shunday ekan, bu yurtning oddiy ketmonchisidan tortib, yuqori kasb egasigacha tafakkur sohibi bo'lmog'i kerak. Tafakkur nima deganda aytish lozimki, tafakkur bu hech bir nuqsoni bo'lmagan chin insoniylikdir. Biz oilada shunday muhitni yarataylikki, ota ham otalik va ham ustozlik vazifasini bajarsin. Biz otalarga ustozlik unvonini beraylik. Har bir oilada odamiylik maktabidan o'zlari farzandlariga dars bersinlar. Otaning vazifasi bu oilani tebratish bo'lsa, ustozning vazifasi farzandni tarbiyalamoq unga ilm bermoqdir. Ushbu tizim millatimizning ilmiy madaniy va ma'rifiy darajasini yuksaltirishda juda qo'l keladi. Vatan oiladan boshlanadi,

dedik. Vatanning ko'rkil oiladan boshlanadi. Shu o'rinda aytmoqchimizki, farzand tarbiyasi uchun ustozlik qilishga o'qigan bo'lishi shart emas. Qonimizda ota -bobolarimizdan o'tib kelayotgan insoniylik va milliy an'analarimiz bor. Faqatgina uni harakatga keltirib ko'ngilda yuksak e'tiqod va qattiq qo'llik bilan vazifangizga yondoshsangiz bo'ladi. Siz millatingizni, aslingizni, naslingizni bilasiz. Avvalo, uyda turli xil mavzularda kutubxonatashkillashtirish kerak. Albatta, ma'naviyatli bo'lishni istasangiz ilmga intilasiz. Tushinib turibmiz, kitob o'qimoq hozir hammaga ham yoqadigan yumush emas. Lekin biz faqat nafs bilan cheklanib qolsak, yuqorida aytganimizdek manqurtlik asoratida qolib ketaveramiz. Tafakkurida ilm bo'lmagan inson g'iybatga beriladi. Axir til gapirmoq uchun berilgan. Tafakkurda gapiradigan ilm shodalari bo'lmasa g'iybat ko'payadi. G'iybat bu ruhiy kasallikdir. Xalqimizni bunday kasallik turidan ozod qilish uchun fikrni milliy o'zlikka, milliy madaniyatimizga qaratishimiz kerak. Ilmning cheki chegarasi yo'qdir. Agar tafakkur ilm bilan boyitilsa, hech qanday g'iybatga o'rin qolmaydi va biz otalarimiz onalarimizning ustozlik vazifalari orqali sog'lom turmush tarzini yaratamiz. Xalqimiz hech qachon birovga yomonlik istamagan, bag'ri keng ulug' bir millatdir. Bizda har bir oila tinch va beg'ubor bekamu - ko'st yashashni istaydi. Faqat ana shu bekamu - ko'stlikning yoniga ilmni qo'shsak, bilingki hayotingiz tubdan o'zgarib ketadi va siz chinakam baxtni anglaysiz. Biz har bir oilada insoniylik maktablarini tashkillashtirsak, ota - onalarimiz kuniga hech bo'lmasa yarim soat farzandlariga mehr -oqibat nima, adolat, haqiqat, mardlik, saxovat, oila, vatan, millat nima va hokazolar xaqida nasihat so'zlasalar, nur ustiga a'lo nur bo'lardi. Ota farzandiga desinki, - bolam sening vijdoning pok, ko'ngling har neki qusur odatlardan holi bo'lmog'i lozim. Vijdon kamarini belingga bog'lab insoniylik fazilatlarini xalq oldida namoyon et. Qalbingda poklik, himmat, xizmat, hurmat, kamtarinlik, odob - axloq aqidalarini shakllantir, ota- ona, el -yurt, Vatan oldida o'z burchingni angla, yomondan yiroq yur, yaxshini do'st tutgin, sabrli bo'l, iymoningni but saqla. Hamisha ilmga intilib yashagin, xor bo'lmaysan, birovga zoriqmaysan, saodat topasan.Odob -axloq bu bizning qonimizdagi ilmdir. Farzandning tarbiyasi uchun diplom shart emas. Yaxshilik, mehr - oqibat haqidagi so'zlar oramizda shu qadar ko'pki, uni aytaverib tugata olmaysiz. Biz ana shunday go'zal hayotga olib boruvchi tarbiyaviy ahamiyati katta bo'lgan so'zlarni farzandlarimizga etkazib berolmayapmiz. Biz hayot tashvishlariga berilib, farzandlarimiz tarbiyasiga vaqt ajrataolmayapmiz. Buning natijasida farzandlarimizning ilmga to'ldirishlari kerak bo'lgan hujayra bo'shliqlarini salbiy hislatlar egallamoqda. Inson ongida qanday fikr bo'lsa, o'shanga amal qiladi. Milliy e'tiqod bo'lsa, milliylikiga yondoshadi. E'tiqod juda kuchli manbaiki, u inson vujudiga qon bilan qiradi. Misol keltiraylik. Tarixda bir mamlakat shohi go'zal lo'li bir qizni sevib qolibdi va unga tilamchilik qilmaslik sharti bilan uylanibdi. Oradan kunlar o'tib shoh chekka bir saroyida tokchalarga nonni terib, o'ziga o'zi sadaqa qiling deb tilamchilik qilayotgan o'sha lo'li xotinini ko'rib qolibdi. Shoh saroyida malika tilamchilik qilmoqda. E'tiqodning kuchini sezayapsizmi? Yoki bo'lmasa yomon odatlarni kasb qilgan o'g'rini olaylik. Siz uni har qancha yo'lidan qaytarmang, har qancha qamalmasin, baribir o'g'irlik qiladi. Ha, bu odam bo'lmaydi deb qo'yamiz. Bu ham e'tiqoddir. E'tiqodni jon bilan sug'urib olinmasa, ayirib bo'lmaydi. Endi anglayapsizmi,

agar biz millatimiz ongiga milliy e'tiqodni singdirsak, qanday qudratli vatan bo'lishimizni. Biz azaliy ilmlarimizni e'zozlagan holda, keyingi asrning salbiy oqibatlarini yo'qotish uchun insoniylik maktablariga qayta asos solishimiz kerakki, bu o'zligimizdan ancha yiroqlashib ketayotgan bizning davrimizda milliy e'tiqodimizni kuchaytiradi. Inson biror bir kasb tanlashidan oldin, avvalo, milliy e'tiqod maktabidan saboq olishi kerak. Ana shunda jamiyatdagi barcha salbiy qusurlardan holi musaffo hayot yarata olamiz. Biz farzandlarimizning o'sib kelayotgan ongiga tafakkur va milliy e'tiqodni chuqurroq singdirishimiz kerak. Bu, xalqimiz oldidagi ma'suliyatli va kerakli tizimdir. Millat o'zini o'ziga ko'rsatish kerak emas, millat o'z - o'ziga faxr tuyg'usini his qilishi kerak. Millatimizning donishmandligini, xalqimizni oqilligini o'zimiz emas, o'zga millatlar ko'rsin va havas qilsin. Insoniylik tuyg'ulari e'tiqod orqali tug'iladi. Biz millatimiz, xalqimizning qoniga milliy e'tiqodni singdirsakgina maqsadga erishamiz. E'tiqodli inson hamisha o'z millatiga sodiq qoladi, uning madaniyati va ma'naviyatini qadrlaydi, ulug'laydi. Milliy urf - odatlarimizni davomiyligini ta'minlaydi. Fikri yodini ilmga qaratadi. Millat va vatan uchun qayg'uradi. Uning uchun shaxsiy manfaatlar ikkinchi darajada bo'lib qoladi. Aslida bizda barcha sharoitlar mavjuddir. Iqtisodiy tanqislikni ro'kach qilib ba'zi yurtdoshlarimizning o'zga yurtlarda ishlagani ketishlari, bu millatimizning ham ma'naviyati va ham madaniyatiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Uning o'zga yurtda istaymizmi yo'qmi, ruhiy holatida o'zgarishlar sodir bo'ladi. O'sha muhit odatiga o'rganadi, kerak bo'lsa o'zga madaniyatlar xilini yurtimizga olib kirishdan ham qaytmaydi. Nega? Chunki ular milliy e'tiqod tarbiyasi bilan sug'orilmaganlar. Odam savdosi ma'lo'mki, global muammolardan biriga aylandi. Bu holat bizning yurtimizda ham yuqori darajada ekanligini har kuni yurtimizdan chiqib ketayotgan yurtdoshlarimizdan bilsak bo'ladi. Qullikning zamonaviy bunday ko'rinishi millatimiz obro'siga putur etkazmayaptimi? Biz qachon o'zlikni anglaymiz. Biz qachon nafsni bir chekkaga so'rib milliy e'tiqod yo'lga o'tamiz. Biz bir millat o'z millatimizning sha'niga dog' tushirib qo'ymayapmizmi? Agar ilm birla tafakkurni ishlatsak, o'sha yoqda topilayotgan pulni o'z yurtimizdan ham topsa bo'lmaydimi? Biz o'z ustimizdan qachon ishlaymiz? Biz o'zligimizni tafakkurimizda qachon uyg'otamiz. Biz ertaning g'ami bilan emas, bugunning ilmi bilan yashaylik, ertamiz yorug' bo'ladi. Bizning millat, bizning xalq jahon tamadduniga tamal toshini qo'ygan millatdir. Al - Beruniy, Al - Buxoriy, al - Xorazmiy, at - Termiziy, Ibn Sino kabi daholar avlodi ekanligimizni unutib qo'ymaylik. Bizning millatga, bizning xalqqa qullik yarashmaydi. Biz oqil va dono, donishmand xalqimiz va o'z tamoyilimizga sodiq qolishimiz kerak.

Alhamdillillahi robbil a'lamin...

www.nursafardiyya-sufism.uz